


II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 9 437,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2022 yilning tegishli davriga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 97,8 foizni tashkil etdi (2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 109,8 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 1,2 foizni (ishlab chiqarish indeksi 64,0 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 104,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 53,7 %) tashkil qildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish
(2023 yilning yanvar-iyun)

	Mrd. so'm	2022 yil yanvar-iyuniga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	9 437,1	106,3
Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	42,8	53,7
<i>ulardan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	42,8	53,7
Qayta ishlash sanoati	9 233,4	109,8
<i>undan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	648,3	100,8
ichimliklar ishlab chiqarish	4,8	88,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 579,0	98,7
kiyim ishlab chiqarish	358,6	169,2
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	0,9	73,0
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	32,7	147,1
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	50,7	275,6
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	1,9	67,0
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	276,2	133,5
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,1	38,4
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	206,3	125,4

davomi

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2022 yil yanvar-iyuniga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 064,8	122,6
metallurgiya sanoati	71,2	164,8
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	37,0	77,1
elektr uskunalarni ishlab chiqarish	305,6	208,1
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	6,1	110,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	34,2	124,8
Mebel ishlab chiqarish	107,8	119,5
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	68,1	76,6
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	15,8	39,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	4 363,3	63,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	117,5	64,0
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	43,4	104,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (97,8 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoat korxonlari tomonidan 9 437,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 106,3 foizni tashkil etdi.



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi (foiz hisobida)




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

20,5 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,4 foizni, uning fizik hajm indeksi esa 97,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,5 foizni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,4 foizga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 938,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

6,9 %

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 12,7 foizni, uning fizik hajm indeksi esa 103,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 6,9 foizni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,6 foizga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 653,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.






Avtotrasport vositalari, treylerlar yarim tirkamalar ishlab chiqarish

42,1 %


Avtotrasport vositalari, treylerlar yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida avtotrasport vositalari, treylerlar yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 18,9 foizni, uning fizik hajm indeksi esa 248,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, avtotrasport vositalari, treylerlar yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 46,2 foizni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 37,0 foizga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 4 363,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 20,5 foiz ulushini), Jizzax shahri (20,5 %), G'allaorol (47,4 %), va Zafarobod (7,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.







Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)

	O'lchov birligi	2023 yil yanvar-iyun	2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan foiz
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	-	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	15 095,0	103,5
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	11 908,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	2 666,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	439,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	77,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	5,0	-
Paxta chigiti	t	22 607,6	97,7
Momiq	t	1 353,6	124,2
Tozalangan paxta yog'i	t	4 002,4	69,4
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	55 580,1	-
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	301,6	-
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	-	-
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	6 146,7	17,1
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	3 302,0	-
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 384,0	152,4
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	18 428,5	79,8

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 597,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 187,7 foizini, uning jami sanoatdagi ulushi 59,3 foizini tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



Oziq-ovqat mahsulotlari




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 2023-yil yanvar-iyun oylarida 9,9 foizni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 24,5 foizni va Zarbdor 8,9 foizni, Zomin 15,5 foizni hamda Paxtakor tumanlarida 20,9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal (184,9 %), Forish (138,2 %) hamda Mirzacho'l tumanlarida (132,8 %), qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari


Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023-yil yanvar-iyun oylarida 90,1 foizni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 4,6 foizni va G'allaorol tumanida 87,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (127,4 %), G'allaorol (360,4 %) hamda Paxtakor tumanlarida (155,1 %), qayd etildi.






2023 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (100 10,2 ming so'm), G'allaorol (24 310,3 ming so'm), Zafarobod (14 038,7 ming so'm), Do'stlik (5 321,6 ming so'm) hamda Paxtakor (4 775,7 ming so'm) tumanlari o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




2023 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 5 756,0 mlrd. so'mlik mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 24 820,9 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 551 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.





2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 260,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,0 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Arnasoy, Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlarida (100%) yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Do'stlik (17,1 %), Zafarobod (5,8 %) hamda G'allaorol (1,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.






2023 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Jizzax shahar (71,1 %), Zomin (67,7 %) va G'allaorol (1,2 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.




2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2023-yilning 1 iyul holatiga viloyatda 2 715 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'lib, ulardan 398 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari hisoblanadi.



Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda
(2023 yilning 1 iyul holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (724 ta) va Sharof Rashidov (369 ta) tumanida joylashgan.

Shuningdek, G'allaorol tumanida (325 ta), Zarbdor (184 ta), Forish (157 ta), Do'stlik (116 ta), Paxtakor (128 ta), Zomin (247 ta), Baxmal (130 ta), Arnasoy (89 ta), Mirzacho'l (106 ta) Zafarobod (90 ta) va Yangiobod (50 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.